

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Jizzax viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-yanvar holatiga 1382,1 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 29,7 ming kishiga yoki 102,2 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 647,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 46,9 %), qishloq aholisi soni 734,2 ming kishini (53,1 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2019-yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **29,7 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **36,4 ming nafarni** tashkil etdi.
- **5,5 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **13,8 mingta nikoh** va **1,1 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Jizzax viloyati aholisining umumiyo'sishi (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)

Tirik tug'ilganlar  
**36,4 ming bola**

Tabiiy  
o'sish  
**+30,9**  
ming kishi

Aholining  
umumiyo'sishi  
**102,2**  
ming kishi

Ko'chib kelganlar  
**10,3 ming kishi**

Mexanik  
o'sish  
(kamayish)  
**-1,3**  
ming kishi

Vafot etganlar  
**5,5 ming kishi**

Ko'chib ketganlar  
**11,6 ming kishi**

**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi  
(2020-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)**

	2018-yil	2019-yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Jizzax viloyati	1352,4	1382,1	102,2
Jizzax sh.	174,4	177,7	101,9
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	45,2	45,8	101,3
Baxmal	152,5	155,8	102,2
G'allaorol	167,7	171,4	102,2
Sh. Rashidov	214,0	220,3	102,9
Do'stlik	64,3	65,4	101,7
Zomin	159,9	163,6	102,3
Zarbdor	83,7	85,9	102,6
Mirzacho'l	50,4	51,6	102,4
Zafarobod	48,9	49,8	101,8
Paxtakor	72,9	74,3	101,9
Forish	90,9	92,4	101,7
Yangiobod	27,6	28,1	101,8


Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'satmoqdaki, 2020 yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Sh. Rashidov tumanida 220,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,9 %ni) va Jizzax shahrida 177,7 ming kishini (12,9 %), aksincha eng kam aholi soni Arnasoy 45,8 ming kishi (3,3 %) va Yangiobod tumanida 28,1 ming kishini (2,0 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018-yilning mos davriga nisbatan Sh. Rashidov tumanida 15,8 %ni, Jizzax shahrida 12,9 %ni, G'allaorol tumanida 12,4 % ni, Zomin tumanida 11,8 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Arnasoy 3,3 % ni va Yangiobod tumanida 2,0 %ni tashkil etdi.



## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



## Demografik holat



**Tug'ilish.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 36,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,7 promilleni tashkil etib, 2018-yilning mos davriga nisbatan 1,5 promillega ko'paygan (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 25,2 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018-yilning mos davriga nisbatan Zomin (28,0 promilledan 29,3 promillega) va Baxmal tumanida (29,5 promilledan 30,3 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish tumanlarda kuzatilmadi.


**Ma'lumot uchun**  
Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**O'z bolalar:**  
**17,2**  
**ming nafar**



**O'g'il bolalar:**  
**19,2**  
**ming nafar**

**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti  
(2019-yil yanvar-dekabr)**



**Jizzax viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi  
(2019-yil yanvar-dekabr)**

	2018-yil.	2019-yil.	O'sish sur'ati %da
Jizzax viloyati	33801	36453	107,8
Jizzax sh.	3627	4191	115,6
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1003	1033	103,0
Baxmal	4451	4671	104,9
G'allaorol	4230	4711	111,4
Sh. Rashidov	5822	6303	108,3
Do'stlik	1464	1521	103,9
Zomin	4434	4746	107,0
Zarbdor	2212	2439	110,3
Mirzacho'l	998	1055	105,7
Zafarobod	1108	1134	102,3
Paxtakor	1733	1824	105,3
Forish	2075	2171	104,6
Yangiobod	644	654	101,6

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 5,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,0 promilleni tashkil etdi, 2018-yilning mos davriga nisbatan -0,2 promillega kamaydi (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 4,2 promille bo'lган).

O'lim koeffitsiyenti 2018-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Jizzax sh. (4,1 promilledan 3,9 promillega) G'allaorol (4,5 promilledan 4,4 promillega), Arnasoy (3,3 promilledan 3,0 promillega) Zomin (4,3 promilledan 4,1 promillega), Zarbdor (4,0 promilledan 3,6 promillega), Paxtakor (4,2 promilledan 4,0 promillega) va Do'stlik (3,8 promilledan 3,7 promillega), tumanlarida kuzatildi.


### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
3,1 ming  
kishi

**Ayollar:**  
2,4 ming  
kishi

### Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2019-yil yanvar-dekabr)




**Jizzax viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi  
( 2019-yil yanvar-dekabr)**

	2018-yil	2019-yil	O'sish sur'ati, %da
Jizzax viloyati	5595	5536	98,9
Jizzax sh.	713	681	95,5
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	150	137	91,3
Baxmal	655	717	109,5
G'allaorol	750	741	98,8
Sh. Rashidov	875	924	105,6
Do'stlik	245	237	96,7
Zomin	680	661	97,2
Zarbdor	331	307	92,7
Mirzacho'l	197	172	87,3
Zafarobod	163	161	98,8
Paxtakor	301	292	97,0
Forish	387	376	97,2
Yangiobod	148	130	87,8

## Demografik holat

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 52,5 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,7 %i o'simtalardan, 8,7 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,7 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,2 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 16,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2019-yil yanvar-dekabr



**Tabiiy o'sish.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 30,9 ming kishini tashkil etib, 2018-yil mos davriga nisbatan 2,7 ming kishiga (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 28,2 ming kishi bo'lgan).

Tabiiy o'sish:  
30,9 ming kishi




## Demografik holat

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 414 nafarni tashkil etib, ularning 59,2 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 22,9 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,8 %i tug'ma anomaliyalardan, 3,4 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,7 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 1,2 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 5,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### 1 yoshgacha vafot etgan bolalarning asosiy o'lim sabablari bo'yicha taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)





### Nikoh.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlar tomonidan 13,8 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 10,1 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018-yilning mos davriga nisbatan barcha hududlarda kamayish kuzatilgan bo'lib asosan eng yuqori kamayish sur'atlari Do'stlik (92,3 %), Arnasoy (92,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.




### Nikohdan ajralishlar.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,8 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2018-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Mirzacho'l (148,6 %), Forish (144,4 %) va Paxtakor (134,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2019-yil yanvar-dekabr)



## Demografik holat

### Hududlar kesimida nikoh, ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2019-yil yanvar-dekabr)



### Jizzax viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (2019-yil yanvar-dekabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018-yil	2019-yil	O'sish sur'ati %da	2018-yil	2019-yil	O'sish sur'ati %da
Jizzax viloyati	13967	13830	99,0	1098	1079	98,3
Jizzax sh.	1631	1634	100,2	202	205	101,5
tumanlar:						
Arnasoy	424	390	92,0	28	31	110,7
Baxmal	1752	1630	93,0	110	92	83,6
G'allaorol	1945	1807	92,9	152	138	90,8
Sh. Rashidov	2147	2340	109,0	142	155	109,2
Do'stlik	624	576	92,3	68	37	54,4
Zomin	1849	1857	100,4	144	124	86,1
Zarbdor	839	887	105,7	61	63	103,3
Mirzacho'l	423	415	98,1	37	55	148,6
Zafarobod	448	481	107,4	31	28	90,3
Paxtakor	814	769	94,5	47	63	134,0
Forish	805	796	98,9	45	65	144,4
Yangiobod	266	248	93,2	31	23	74,2



**Migratsiya.** 2019-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 10,3 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 11,6 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,3 ming kishi bo'lib, 2018-yilning mos davrida minus 0,8 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	11,1	10,3
Ko'chib ketganlar	11,9	11,6
Migratsiya saldosi	-0,8	-1,3

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal tumanida (minus 0,7 ming kishi) Zomin va Forish tumanida (minus 0,4 ming kishi).



Viloyat statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

(72) 221-51-19 (72) 222-81-39